https://gospodarkainnowacje.pl

GOSPODARKA I INNOWACJE

LABORATORIUM WIEDZY Artur Borcuch

Volume: 59 | 2025

Economy and Innovation
ISSN: 2545-0573

For more information contact: **editor@gospodarkainnowacje.pl**

TIL BIRLIKLARIDA AKTUALLIK VA UNING KOMPYUTER LINGVISTIKASIDAGI AHAMIYATI

Ziyadullayeva Madina Mahmarejab qizi
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti, tayanch doktoranti

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: Aktuallik, virtuallik, yangi ma'no, kompyuter lingvistikasi, til birliklari, tilni qayta ishlash tizimlari, til tizimi, nutq, mazmun, belgi, ijtimoiy kelishuv.

Annotatsiya

Bugungi kunda tilni qayta ishlash tizimlari va sun'iy intelektsiz hayotimizni tasavvur qilish qiyin. Bunday tizimlarni samarali faoliyati uchun til birliklaridagi aktuallik hodisasini to'g'ri tushunish va uni kompyuter lingvistikasiga tadqiq etish juda muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada til birliklaridagi aktuallik va uning kompyuter lingvistikasidagi ahamiyati o'rganiladi. Til birliklaridagi aktuallikni tahlil qilishda Ferdinand de Sossyur ishlab chiqqan strykturalizm nazariyasiga tayanildi.

http://www.gospodarkainnowacje.pl/ © 2025 LWAB.

Kirish

Til birliklaridagi aktuallik hodisasi tilshunoslikda muhim hodisalardan biri hisoblanib, kompyuter lingvistikasida ham o'zining ahamiyatiga ega. "Aktuallik" so'ziga turli lug'atlarda turlicha izoh beriladi. Ummumiy olganda, **"aktuallik**" bu **"biror hodisa yoki obyektning real hayotda mavjud bo'lishi yoki sodir bo'lishi"**[1] hisoblanadi. Tilshunoslikda esa aktuallik hodisasiga olimlarning fikrlaridan xulosa qilib shunday ta'rif berishimiz mumkin: "**Aktuallik hodisasi – bu til birliklarining (so'z, ibora, gap) til tizimidagi virtual (imkoniyat) holatdan chiqib, real, kontekstual qo'llanishda (nutqda) yangi yoki kengaygan ma'no kasb etish jarayonidir**"[2]

Til birliklaridagi aktuallik hodisasi XX asrdan boshlab tilshunoslikda alohida tushuncha sifatida o'rganila boshlangan bo'lsa-da, bu hodisaga qiziqish uzoq o'tmishdan beri bor bo'lgan. Ayniqsa, Ferdinand de Sossyurning til va nutqni farqlarini tushuntirib berganidan keyin til birliklaridagi virtuallik va aktuallikni aniqlash va ulardagi virtuallik va aktuallik belgilarini farqlashga katta ehtiyoj tug'ildi. Ferdinand de Sossyur til birliklarining ikki muhim tomonini aniqlaydi. Ular belgi (til birliklarining moddiy tomoni) va mazmuni. Ferdinand de Sossyur belgi va uning mazmuni o'rtasidagi munosabat tasodifiy ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni, ular o'rtasidagi aloqa tabiiy yoki mantiqiy asosga ega emas, balki, ijtimoiy kelishuvga asoslanishini ta'kidlaydi[3]. Tabiiyki, bu kelishuv o'zgarib turadi. Masalan,

[1] actuality noun - Definition, pictures, pronunciation and usage notes | Oxford Advanced Learner's Dictionary at OxfordLearnersDictionaries.com

[2] Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики / Пер. с франц. и примеч. Ю.С. Степанова. — М.: Изд-во Эксмо, 2004. — 272 с.
Якобсон Р. Лингвистика и поэтика // Работы по поэтике. — М.: Прогресс, 1987. — С. 198–259.
Серль Дж. Р. Речевые акты: Эссе по философии языка / Пер. с англ. С.Е. Никонова. — М.: Прогресс, 1986. — 285 с.

[3] Saussure, Ferdinand de. Course in General Linguistics. Edited by Charles Bally and Albert Sechehaye, in collaboration with Albert Riedlinger, Translated by Wade Baskin. McGraw-Hill, 1966.pp.90-101 (240).

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

ingliz tilidagi “cat” so’zi “uy hayvoni” ma’nosini anglatadi, o’zbek tilida esa xuddi shu hayvonning nomini “mushuk”, rus tilida “кошка” so’zlari anglatadi. Odamlar ***“cat”, “mushuk”, “кошка”*** so’zlarini ***“uy hayvonlaridan biri”*** ni atash uchun kelishib olishgan. Vaqtlar o’tishi bilan bu kelishuv o’zgarishi va bu nomlar o’rniga boshqa so’zlar ishlatilishi mumkin. Bu so’zlar va ular anglatadigan ma’nolar o’rtasida hech qanday mantiqiy yoki tabiiy bog’lanish yo’q. Shuningdek, til birliklari va ularning ma’nosi o’rtasidagi bog’lanish turg’un holatda emasligini ham olim alohida ta’kidlaydi. Til birliklari anglatgan ma’no vaqt o’tgani sayin jamiyatdagi o’zgarishlar va jamiyat a’zolarining kelishuvi asosida o’zgarib turishini o’z ma’ruzalarida alohida uqtiradi[4]. Bu nazariya til birliklaridagi aktuallik hodisasiga bevosita bog’liq hisoblanadi. Chunki, har bir tilning faol foydalnuvchilari, maxus kelishuv asosida til birliklarining aktualligini belgilaydi. Ya’ni hozirda keng miqyosda ishlatilayotgan ba’zi so’zlar biroz vaqt o’tgandan keyin umuman ishlatilmay qolishi, ularning o’rnini boshqa so’zlar egallashi yoki oldin juda noyob holatlarda ishlatilgan so’zlar jamiyatdagi o’zgarishlar sabab aktual holatga o’tib keng miqyosda ishlatiladigan so’zlarga aylanishi mumkin. Masalan, onlayn yoki virus kabi so’zlar avval juda kam ishlatilgan bo’lsa, hozirda texnologiyalarning rivojlanganligi bois, butun dunyoda keng foydalaniladigan so’zlarga aylandi, ya’ni aktuallashdi.

Shuningdek, Ferdinand de Sossyur tilni ikki asosiy komponentga bo’ladi: til tizimi va nutq[5]. Til tizimi bu jamiyatda mavjud bo’lgan til haqidagi umumiy qonun-qoidalar, tushunchalar va til birliklari hisoblanadi. U insonlar ongida nutqda foydalanish uchun virtual holatda mavjud bo’ladi. Bu til birliklarini til foydalanuvchilari o’z nutqlarida foydalanishsagina, ular aktuallashadi. Bu ikki komponent bir-biri bilan uzviy bog’liq hisoblanib, birini ikkinchisiz tasavvur qilish mumkin emas. Ferdinand de Sossyur til birliklarining ma’nosi ularning o‘zaro bir-biri bilan aloqa qilganda shakllanishini aytib o’tadi. Ya’ni, so‘zlar yoki til birliklari o‘z-o‘zidan emas, balki tildagi boshqa birliklar bilan farqlanishi orqali ma’no hosil qiladi. Shu sababli, til birliklari virtual holatdan aktual holatga ko’chganda, virtual holatdagidan boshqacharoq ma’no kasb etishi mumkin[6]. Masalan, o’zbek tilidagi ***“qora”*** so’zini olaylik. Bu so’zning lug’aviy ma’nosi ***“rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to‘q”***[7] ma’nosini beradi. Odamlar ongida virtual holatda shu ma’noda mavjud hisoblanadi. Lekin u aktuallashganda, kontekst, nutq sharoiti va so’zlovchining holatiga qarab turlicha ma’no kasb etishi mumkin. Masalan, ***“U kunlarimni qoraga aylantirdi”***. Ushbu gapdagi ***“qora”*** so’zi ***“baxtsizlik, qayg’u”*** kabi ma’nolarni anglatadi. Yoki, inglizcha ***“cold” (sovuq)*** so’zi lug’atlarda ***“of or at a low or relatively low temperature, especially when compared with the human body”*** (inson tanasi bilan solishtirganda past yoki nisbatan past haroratda)[8] ma’nosini anglatadi. ***“She gave me a cold look.”*** Bu misolda ***“cold”*** endi ***“unfriendly”, “emotionally distant”*** (**do’stona emas**) degan metaforik ma’noda ishlatilgan. Ushbu misolda ***“Cold”*** boshqa birlik (masalan, “***look***”) bilan bog‘lanib, farqlanish orqali boshqa ma’noni hosil qilmoqda. Lug‘aviy (virtual) ma’nosi saqlanmayapti; yangi (aktual) kontekst orqali boshqa semantik yuklama paydo bo‘lmoqda. Ya’ni, so‘zning virtual holatdagi ma’nosi aktual holatga o‘tishda o‘zgaradi.

Ko’rinib turibdiki, bu ma’nolar kontekstda so’z aktuallashgandagina namoyon bo’ladi. Til birliklari virtual holatda bir tizimdagi imkoniyatlar majmuasidir. Ular insonlar nutqida aktuallashganda, kontekst va boshqa birliklardan farqlanish orqali yangi yoki kengaygan ma’nolarga ega bo’ladi.

Til birliklaridagi aktuallik hodisasi kompyuter lingvistikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Til birliklaridagi aktuallik belgilari, ularning kontekstual ma’nolarini o’rganmay turib, avtomatik tarjima, tilni qayta ishlash, nutqni tanish va shu kabilarda til birliklarining qanday ma’no anglatyotganini bilish imkonsiz. Shuningdek, chatbotlar va nutq interfeyslarida ham foydalanuvchilar gaplarini kontekstda

[4] F. de Saussure, *Course in General linguistics,* (1916), pp. 98-102.
[5] Saussure, Ferdinand de. Course in General Linguistics. Edited by Charles Bally and Albert Sechehaye, in collaboration with Albert Riedlinger, Translated by Wade Baskin. McGraw-Hill, 1966.pp.13-14 (240).
[6] Course in General Linguistics, trans. by Wade Baskin, 1959, McGraw-Hill. Pp.14-19
[7] https://izoh.uz/word/qora
[8] https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/cold

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

tushunish muhim. Buning uchun til birliklarining lug'aviy ma'nosini emas, balki nutqdagi aktual ma'nolarini aniqlash kerak.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, til birliklaridagi aktuallik hodisasi nafaqat tilshunoslikda, balki kompyuter lingvistikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada izlanishlar qilish, so'zlarning yangi ma'nolarini o'rganish va kontekstdagi holatlarini tahlil qilish tildagi zamonaviy o'zgarishlarni aniqlash va kompyuter lingvistikasida juda ko'plab sohalarning aniq ishlashiga yordam beradi. Chunki til birliklaridagi aktuallikdan boxabar bo'lmay turib, til modellari va algoritmlari foydalanuvchilarga aniq va qoniqarli xizmat qilishi imkonsiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saussure, F. de. (2004). *Kurs obshchey lingvistiki* (Yu. S. Stepanov, Trans.). Moscow: Eksmo.
2. Jakobson, R. (1987). Lingvistika i poetika. In *Raboty po poetike* (pp. 198–259). Moscow: Progress.
3. Searle, J. R. (1986). *Rechevye akty: Esse po filosofii yazyka* (S. E. Nikonov, Trans.). Moscow: Progress.
4. Oxford University Press. (n.d.). *Actuality* [Def.]. In *Oxford Advanced Learner's Dictionary*. Retrieved April 30, 2025, from https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/actuality
5. Izoh.uz. (n.d.). *Qora* [Def.]. Retrieved April 30, 2025, from https://izoh.uz/word/qora
6. Cambridge University Press. (n.d.). *Cold* [Def.]. In *Cambridge Dictionary*.
7. Chomsky, N. (1957). *Syntactic Structures*. The Hague: Mouton.
8. Manning, C. D. (2023, May 5). The future of computational linguistics. *Stanford Engineering*.
9. Mansfield, J., & Wilcox, E. G. (2025). Looking forward: Linguistic theory and methods. *arXiv preprint arXiv:2502.1831*.
10. Winograd, T., & Flores, F. (1986). *Understanding Computers and Cognition: A New Foundation for Design*. Norwood, NJ: Ablex Publishing Corporation.
11. Amsler, R. A. (1980). *The Structure of the Merriam-Webster Pocket Dictionary* (Doctoral dissertation). University of Texas at Austin.
12. Berwick, R. C., & Chomsky, N. (2015). *Why Only Us: Language and Evolution*. Cambridge, MA: MIT Press.
13. Reiter, E., & Dale, R. (2000). *Building Natural Language Generation Systems*. Cambridge: Cambridge University Press.
14. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Fillmore, C. J., Johnson, C. R., & Petruck, M. R. L. (2003). Background to FrameNet. *International Journal of Lexicography*, 16(3), 235–250.

Copyright © 2025 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0